Toshkent davlat tibbiyot universiteti Atrof muhit gigienasi kafedrasi professor-o‘qituvchilari tomonidan maxalla aholisi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni sog‘ligini mustahkamlash, yoshlar, ayollar va keksalarni sog‘lom turmush tarziga keng jalb qilish va ularni jismoniy faolligini oshirishga ko‘maklashuvchi tibbiy maslahatlar berish maqsadida o‘tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

23.12.2025

Ishtirok etdi: 185 maktab o‘quvchilarining ota –onalari, pedagoglar jami 267 nafar.
Kun tartibi: Farzandlarga kasb tanlashda ota-onaning o‘rni

Atrof muhit gigienasi kafedrasi dotsenti L.K.Abdukadirova tomonidan Allon va Quyosh maxallasi territoriyasida joylashgan maktabda o‘quvchilarining ota –onalari, pedagoglar ishtirokida “Farzandlarga kasb tanlashda ota-onaning o‘rni” mavzusida suxbat o‘tkazildi. Suxbat davomida ota-onalarga quyidagilar uqtirildi: kasb tanlashda nimalarga e’tibor qaratish kerak? Kasb tanlash – har bir inson hayotidagi eng muhim tanlovlardan biri. Kasb – nafaqat daromad topish manbayi, balki umrning asosiy qismi sarflanadigan faoliyat hamdir. Farzandingizda qaysi kasbga moyillik va qiziqish yuqori ekanini aniqlab olishingiz mumkin.

Maktabni bitirish arafasida o‘spirin ko‘pincha kasblar haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘ladi. Ular tanlagan kasblarining faqat ijobiy yoki aksincha salbiy jihatlarini ko‘rishadi. Bunda ota-onalar farzandlariga ko‘p narsalarni aniqlashtirishda yordam berishlari kerak.

9-sinfdan boshlab asta-sekin farzandingiz tanlagan yo‘nalish bilan tanishish maqsadida insitut va universitetlardagi «Ochiq eshiklar» kunlarida ishtirok etish maqsadga muvofiq.

Farzandingiz qaysi kasbni tanlash haqida bir qarorga keldi deylik. Endi u o‘zini shu yo‘nalishda sinab ko‘rish kerak. Buning uchun turli o‘quv-guruhlari bo‘lgan ko‘plab ixtisoslashgan maktablar va kurslar mavjud bo‘lib, ular transport vositalari mexanikasidan tortib, tadbirkorlikkacha o‘zini sinab ko‘rish imkoniyatini beradi. Asosiy tanlovdan tashqari, qo‘shimcha ravishda e’tiborga olinuvchi «zaxira» tanlov ham bo‘lishi kerak. Chunki hayotni oldindan prognozlashtirib bo‘lmaydi, unda har qanday holat ro‘y berishi mumkin.





Tanlangan yo‘nalish bo‘yicha o‘qishga kira olmay qolgan taqdirda tushkunlikka tushmaslik, boshqa optimal variantlarni ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Inson yoqtirmagan ishi bilan butun hayot davomida shug‘ullansa, o‘zini baxtsiz his qiladi.

Shundan so‘ng ota-onalardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar berildi.

Ma’sul **Abdukadirova L.K**

XODIMLAR BO'LIMI

Scanned with CamScanner